

AXBOROT-KOMMUNIKASION TA'LIM MUHITIDA TALABALAR MUSTAQIL TA'LIMINI TASHKIL ETISHNING TASHKILIY-METODIK TIZIMI

Safarova Ziyoda Ro'ziboyevna

Ubaydullayeva Sitora Azim qizi

**Abu Ali Ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi
texnikumi o'qituvchilari**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14412111>

Pedagogika fani rivojlanishining zamonaviy bosqichida kompyuterli modellashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. B.S. Gershunskiy o'zining ishlarida ilmiy-pedagogik tadqiqotlarda kompyuter vositalaridan foydalanishga katta e'tibor qaratadi. Xususan, uning ta'kidlashicha, o'zining ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan, biroq hozirgi kecha-kunduzda tobora keskinlashib borayotgan pedagogik faoliyatning optimallasuvi va jadallashuvi uning qaysi sohada qo'llanilishidan qat'iy nazar mazkur sohani har tomonlama, ishonchli va tezkor axborot ta'minoti masalalarini hal etish bilan organik jihatdan bog'liqdir"¹.

B.S.Gershunskiyning fikriga ko'ra, faqatgina insonning intellektual imkoniyatlari va kompyuter texnologiyalarining o'zaro uyg'unligidagi hamkorligi ko'p qirrali pedagogik faoliyatning jadallashuvi va optimallasuvi jarayonining yangi bosqichiga olib keladi. O'qitishning har qanday modelini tuzishda mavjud didaktik nazariya va kontsepsiyalarga tayanadi².

Biz tomonimizdan ishlab chiqilgan axborot-kommunikasiya ta'lim vositasida talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda talabalar mustaqil ta'limi tizimining didaktik modeli auditoriya va auditoriyadan tashqari mustaqil ish bloklari orqali taqdim etilgan.

Bloklar mustaqillik darajasini shakllantirishning belgilangan bosqichlariga (moslashuvchan, shakllantiruvchi, refleksiv) muvofiq ravishdagi modullardan iborat.

Modullarning har biri muayyan turdagi komponentlarni o'z ichiga oladi:

ma'ruza mashg'ulotida qo'llaniladigan mustaqil ta'lim topshirig'i;

Muammoni nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilganimizda, T.N.Kulikova tomonidan tadqiq etilgan ma'lumotlarga tayangan holda biz o'qituvchining TMTni tashkil etishda AKTdan foydalanishga tayyorligi quyidagi – motivatsion, texnologik va psixologik-pedagogik komponentlarni o'z ichiga olishini aniqladik. Bu esa tahsil oluvchi shaxsning mustaqil ta'limini yaxlit tarzda, samarali amalga oshirish komponenti sifatida ko'rib chiqilishiga e'tibor qaratdik.

1. Tayyorgarlikning motivatsion komponenti ta'limni axborotlashtirish ishining ahamiyatini anglash, TMTni AKT yordamida tashkil etishning manfaati va zaruratini nazarda tutadi.
2. Tayyorgarlikning texnologik komponenti o'qituvchida axborot - kommunikatsion va texnologik kompetentliklarining shakllanganligini nazarda tutadi.
3. Tayyorgarlikning psixologik-pedagogik komponenti o'qituvchining kasbiy-metodik jihatdan tayyorligi, kasbiy kompetentsiyasining shakllanganligi, ya'ni, turli xil didaktik usullarini bilishi va ularni ta'lim jarayonida qo'llash qobiliyatini egallaganligi, o'quv jarayonida bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishning psixologik mexanizmlarini anglay olishi

¹ Гершунский Б.С. Компьютеризация в сфере образования: Проблемы и перспективы. М.: Педагогика, 1987. 263 с.

² Гершунский Б.С. Компьютеризация в сфере образования: Проблемы и перспективы. М.: Педагогика, 1987. 263 с.

hamda psixologik-pedagogik kompetentsiyalarga qay darajada ega ekanliklari bilan tavsiflanadi.

T.N.Kulikova ta'kidlaganidek, ta'lim sohasidagi zamonaviy mutaxassis, axborot-kommunikasion kompetentlikning quyidagi ko'rsatkichlariga ega bo'lishi:

- ta'lim tizimining global axborot jarayonlariga qo'shilganligini anglashi;
- axborotning cheksiz hajmiga samarali yo'l topish hamda mazkur axborotni tahliliy qayta ishlashga tayyor bo'lishi;
- innovatsion pedagogik natijalarga erishish, shuningdek, shaxsiy axborot muhitini yaratish maqsadida zamonaviy axborot muhitida pedagogik g'oyalarning paydo bo'lishiga imkon beruvchi shaxsiy ijodiy fazilatlarini shakllantirish va rivojlantirishga intilishi;
- yuksak darajadagi muloqot madaniyati (shu jumladan, axborot vositalari orqali muloqotga kirishish), dialog rejimida amalga oshiriladigan axborot sohasida o'zaro hamkorlikni tashkil etishning nazariy tasavvurlari va tajribasiga ega bo'lishi;
- axborotni olish, uni tanlash, saqlash, qayta jonlantirish, tasavvurga ega bo'lish, uzatish va integratsiyalash madaniyatini o'zlashtirishi lozim³. Jumladan, Internet tarmoqlaridan yuklab olingan filmlarni ko'rish, tahlil qilishi natijasida munosabatlarga doir bilimga ega bo'ladi. Filmni kompyuter yoki interfaol doska orqali "giperssilka" qilingan elektron adress orqali namoyish qilish ham maqsadga muvofiq (10 Potryasayutshix Simbiozov jivotnix.mp4);
- uzluksiz ta'lim sharoitlarida doimiy ravishda o'zgaruvchan axborot jamiyatida (teleanjuman, masofaviy ta'lim va boshqalar) kasbiy o'sishning muhim jihati sifatida namoyon bo'ladigan zamonaviy interfaol telemuloqot texnologiyalaridan foydalanishga tayyorligi, ya'ni, Zoom dasturi orqali o'quv mashg'ulotlarini o'tish yoki Bandicam dasturi orqali videodars tayyorlash malakasiga ega bo'lishi lozim;
- axborot ta'lim muhitini modellashtirish va tuzish hamda o'zining shaxsiy kasbiy faoliyati natijalarini oldindan bashorat qila olish qobiliyatiga ega bo'lish kerak. Shunday qilib, tashkiliy va metodik omillar, o'qituvchida AKTdan foydalanishga tayyorligining shakllanganligi, talabaning mustaqil ishi va AKTdan foydalanishga tayyorligi darajasini aniqlash, mustaqil ishiga yo'naltirilgan maxsus loyihalashtirilgan AKTMning mavjudligi shaxsga yo'naltirilgan va kompetentli yondashuv asosida zamonaviy pedagogik, axborot va kommunikasiya texnologiyalaridan foydalangan holda TMIni samarali amalga oshirish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, ta'lim oluvchi o'zi uchun muhim bo'lgan bilimlarni o'zi mustaqil qidirib o'zlashtirsa, ta'limda muvaffaqiyatga erishadi. Bilimlarni izlab o'zlashtirish jarayoni chegaralanmagan uzluksiz jarayondir. Bu ayniqsa, hozirgi fan-texnika rivoji va global axborot qurshovi davrida, bilimlar tez-tez o'zgarib borayotgan davrda muhim ahamiyat kasb etadi. Natijada o'qituvchi va talaba o'rtasida refleksiv tipdagi muloqot vujudga keladi. Amaliy mashg'ulot esa dastlabki boshlang'ich nazoratdan boshlanadi.

References:

1. Гершунский Б.С. Компьютеризация в сфере образования: Проблемы и перспективы. М.: Педагогика, 1987. 263 с
2. kizi Tohirova, M. A., & Tursunnazarova, E. T. (2022). BASIC LITERARY ELEMENTS OF

³ Гершунский Б.С. Компьютеризация в сфере образования: Проблемы и перспективы. М.: Педагогика, 1987. 263 с

THE XX CENTURY ENGLISH AND UZBEK SHORT STORIES (BASED ON HERBERT BATES AND SAID AHMAD'S SHORT STORIES). THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD, 1(2), 192-195.

3. ugli Tojimurodov, H. Y., & Tursunnazarova, E. T. (2022). BEOWULF–THE EARLIEST EPIC POEM IN ENGLISH FOLKLORE. THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD, 1(2), 189-191.

4. kizi Aliyeva, G. A., & Tursunnazarova, E. T. (2022). ANALYSIS OF THE STORY 'LUCKY ARTIST' BY ENGLISH AUTHOR SOMERSET MAUGHAM. THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD, 1(2), 172-175.

5. kizi Abdullayeva, L. Z., & Tursunnazarova, E. T. (2022). CHRISTOPHER MARLOWE IS "THE FATHER OF ENGLISH TRAGEDY". THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD, 1(2), 168-171.

6. kizi Abdukodirova, K. A., & Tursunnazarova, E. T. (2022). LITERARY VERSION OF ENGLISH LANGUAGE AND CHOOSING ITS TEACHING BALANCE. THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD, 1(2), 164-167.

7. kizi Daulbayeva, J. R., & Tursunnazarova, E. T. (2022). UNFORGETTABLE MEMORIES OF CHILDHOOD THE ARTISTIC ANALYSIS OF THE NOVEL "KITE RUNNER" WRITTEN BY KHALID HUSAINI. THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD, 1(2), 181-183.

8. kizi Gadayeva, G. F., & Tursunnazarova, E. T. (2022). USEFUL CREATIVE TECHNIQUES PROPOSED FOR TEACHING CHILDREN. THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD, 1(2), 176-180.

9. Ishankhodjayeva, G. T., & Qodirova, Z. M. (2024). SUBACUTE SCLEROSING PANENCEPHALITIS IN CHILDREN: MANIFESTATION OF COGNITIVE DISORDERS. Scientific Journal Of Medical Science And Biology, 3, 108-113.

10. Maxamatjanova, N. M., Mirxaydarova, F. S., & Mirxaydarova, S. M. (2023). THE IMPORTANCE OF DIABETES IN THE DEVELOPMENT OF DEPRESSION. Инновационные исследования в современном мире: теория и практика, 2(8), 9-10.

11. Batirov, D. B. (2024). AMIR TEMUR'S CAMPAIGNS AGAINST TOKHTAMISH KHAN. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 11(12), 120-124.

12. Ugulbekovich, I. J. (2024). AMIR TIMUR: THE BRIGHT GENIUS OF THE MOVAROUNNAHR. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 11(12), 79-83.

13. kizi Usmonova, Y. N., & Tursunnazarova, E. T. (2022). SHAKESPEARE'S INFLUENCE ON OTHER AUTHORS. THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD, 1(2), 201-204.

14. Куликова Т.А. Организация самостоятельной работы студентов вуза в информационно-коммуникационной обучающей среде. Дисс. к.п.н. Ставрополь -2011. 181с.

ⁱ Куликова Т.А. Организация самостоятельной работы студентов вуза в информационно-коммуникационной обучающей среде. Дисс. к.п.н. Ставрополь -2011. 181с.